

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjaye'vich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriye'va Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Ilm-fanga baxshida umr Baxtiyor Islamov | 8 |
| Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov | 10 |
| Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... Zufarova Nozima Gulamiddinovna | 16 |
| Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich | 24 |
| Yashil budjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari Meylev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi | 30 |
| Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari Yormatov Ilmidin Toshmatovich | 35 |
| Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir Agzamov Shaxboz Akmalovich | 39 |
| Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish A. X. Salamov | 44 |
| Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida Dosmurotova Shaxista Kengashovna | 48 |
| Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi Axmediyeva Aliya Toxtarovna | 55 |
| Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich | 63 |
| Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari Shamsiyev Nodir Muratovich | 67 |
| Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari Shagazatov Oybek bahodirovich | 72 |
| Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari Davlatov Sanjar Abdimannonovich | 76 |
| Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari Mirzatov Baxtiyor Toxirovich | 80 |
| Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo’nalishlari Yuldasheva Kamola Miraliyevna | 84 |
| O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) Yoriyeva Farangiz Murodillayevna | 89 |
| Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi Nazarova Umida Avazovna | 94 |
| Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari Mirzaxodjayev Alisher Botirovich | 98 |
| Globalashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish Mirzayev Musurmon Umidullayevich | 103 |
| Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati Fayziyeva Aziza Azamat qizi | 108 |
| Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich | 113 |
| Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi | 119 |
| Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich | 123 |
| Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна | 129 |



| | |
|---|-----|
| Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari..... | 135 |
| Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich | |
| Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish | 141 |
| Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva | |
| Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari: Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili..... | 148 |
| Sultonboeva Munira bahodirovna | |
| Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar..... | 154 |
| Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li | |
| Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта | 159 |
| С. С. Алиева, А. Назаров | |
| Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish..... | 167 |
| Sheraliyeva Saida Azatovna | |
| Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari | 170 |
| Ergashev Sarvar Xudoynazarovich | |
| Инклюзивное образование и его особенности..... | 175 |
| Зайнутдинова Умида Джалоловна | |
| Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari..... | 179 |
| Qurbonov Muxiddin Abdullayevich | |
| Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari..... | 184 |
| Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li | |
| Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari..... | 188 |
| Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li | |
| O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi..... | 193 |
| G. Adilova | |
| Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash..... | 197 |
| Mardiyev Nurali | |
| Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar..... | 203 |
| Yaxyayeva Inobat Karimovna | |
| Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili | 207 |
| Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li | |
| Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari | 213 |
| Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari..... | 221 |
| Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna | |
| O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar | 226 |
| Eshimov Alisher Dasmurodovich | |
| Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)..... | 234 |
| Norqobilov Akobir Iso o'g'li | |
| Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari..... | 240 |
| Rabbimov Elbek Abdulloyevich | |
| Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari | 245 |
| Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li | |
| Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari..... | 250 |
| Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li | |
| Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari..... | 256 |
| Kenjayev Soxib Sayfiyevich | |
| O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish..... | 260 |
| Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi | |
| Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli | 266 |
| Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li | |
| Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari..... | 274 |
| Sobirov Otabek Olimjonovich | |



| | |
|---|-----|
| Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari | 277 |
| Kultayev Farxod Shavkatovich | |
| Tijorat banklari foydasi va rentabilik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish | 281 |
| Normo'minov Temurbek Sheraliyevich | |
| O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari | 284 |
| To'ychiyev Otabek Shamshiyevich | |
| Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari..... | 288 |
| Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna | |
| Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati..... | 293 |
| Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li | |
| Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish..... | 297 |
| Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi | |
| Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari | 302 |
| Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich | |
| Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni | 306 |
| Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li | |
| Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish | 310 |
| Mirzayeva Nargiza Batirovna | |
| Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv..... | 314 |
| O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov | |
| Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation | 319 |
| Mukhlisa Ikramova | |
| Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri | 325 |
| Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev | |
| Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba..... | 329 |
| Kadirova Sharofat Amonovna | |
| Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирўйўйловчи” | 332 |
| Н. Э. Кахарова | |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi | 337 |
| Sharipov Bobur Anvar o'g'li | |
| “STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish | 342 |
| Musyeva Shoira Azimovna | |
| Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari | 348 |
| M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova | |
| Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans..... | 353 |
| Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova | |
| Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralarni samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati | 357 |
| Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich | |
| Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari..... | 362 |
| Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamaova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna | |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari | 369 |
| Tursunova Shaxnoza Farxod qizi | |
| Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot” | 373 |
| Хусанов Кахрамон Нишонович | |
| O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari..... | 378 |
| Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li | |
| Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi..... | 381 |
| Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich | |
| Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash..... | 386 |
| Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li | |



| | |
|---|-----|
| O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari..... | 394 |
| Sh. Madraimov | |
| Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida | 397 |
| Xasanova Lola Mamasharifovna | |
| Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari | 400 |
| B. B. Berkinov | |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari..... | 409 |
| G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li | |
| Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida)..... | 413 |
| Karimov Bekzodjon Iloxovich | |
| Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari | 420 |
| Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li | |
| Финансы или корпоративные финансы | 426 |
| Уринов Бобур Насиллоевич | |
| In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features | 432 |
| Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi | |
| Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari | 437 |
| Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li | |
| Сокращение уровня бедности в Узбекистане..... | 443 |
| Амирджанова Ситора Суннат кизи | |
| Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash | 448 |
| S. B. Inoyatov | |
| Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari | 453 |
| Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li | |
| Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari | 460 |
| O'lokulova Feruza Mansurovna | |
| Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili | 463 |
| Usmanov Baxodir Baxtiyorovich | |
| Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati | 469 |
| Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna | |
| Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari | 473 |
| M. Yuldosheva | |
| Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari | 480 |
| Kurbanova Mehriniso Nematjanovna | |
| O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili | 487 |
| Mirzayev Mirza Abdullayevich | |
| Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi..... | 492 |
| Saydullayeva Saodat Abdumajidovna | |
| Integratsiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi | 499 |
| Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna | |
| Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish | 503 |
| Karamatova Noiba Husnitdinovna | |
| Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari | 510 |
| Mamatov Mamajan Axmadjonovich | |
| Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ..... | 517 |
| Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович | |
| O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari | 522 |
| Sultanov Baxram Begdullayevich | |



| | |
|---|-----|
| Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях..... | 526 |
| Самигова Гуландом Абдужаббаровна | |
| Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri | 534 |
| Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi | |
| Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin | 539 |
| Muminov Akmal Tulkunovich | |
| Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri | 543 |
| Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmira Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich | |
| Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari | 548 |
| Shukurov Iloxom Safarboyevich | |
| Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari | 555 |
| Umarova Moxigul Maxmayunus qizi | |
| Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi..... | 560 |
| Yuldashev G'iyos Turabekovich | |
| Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari | 564 |
| Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna | |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish | 570 |
| Boltayev Abror Sayitmuradovich | |
| Секреты интересного урока в начальной школе..... | 577 |
| Гараева Олеся Владимировна | |
| Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni..... | 580 |
| Ibragimova Gulchehra Toxirovna | |
| Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi..... | 584 |
| Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich | |
| O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida..... | 591 |
| Nabiyev Feruz Nurmurodovich | |



IJTIMOIIY RIVOJLANISH XULQ-ATVOR PARADIGMASIDA YOSHLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mirzatov Baxtiyor Toxirovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada yoshlar bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'ri, tadbirkorlik faoliyati asosiy tushunchalariga nazariy yondoshuvlar, ijtimoiy rivojlanishning xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyati va uni tartibga solishning muhim jihatlari, milliy qadriyatlarining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, bandlik, kichik biznes, tadbirkorlik, qadriyat, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy faollik, xulq-atvor, tartibga solish.

Abstract: In this scientific article, the role of small business and private entrepreneurship in ensuring youth employment, theoretical approaches to the main concepts of entrepreneurship, the important aspects of youth entrepreneurship and its regulation in the behavioral paradigm of social development, based on the main directions of national values, issues of increasing the economic activity of young people are described.

Key words: youth, employment, small business, entrepreneurship, value, social development, economic activity, behavior, regulation.

Аннотация: В данной научной статье рассмотрены роль малого бизнеса и частного предпринимательства в обеспечении занятости молодежи, теоретические подходы к основным понятиям предпринимательства, важные аспекты молодежного предпринимательства и его регулирования в поведенческой парадигме общественного развития, исходя из основных направлений описаны национальные ценности, вопросы повышения экономической активности молодежи.

Ключевые слова: молодежь, занятость, малый бизнес, предпринимательство, ценность, социальное развитие, экономическая деятельность, поведение, регулирование.

KIRISH

Iqtisodiyot nazariyasida "tadbirkorlik" iborasi ikki xil nuqtai nazardan qo'llaniladi: butun ilmiy intizomning belgisi sifatida, korxonalar (kompaniyalar, korporatsiyalar va boshqalar) faoliyatini o'rganuvchi nazariy pozitsiyadan va shu kabi, ushbu guruh korxonalarining tabiati, xulq-atvori, evolyutsiyasi yoki faoliyatining boshqa jihatlari ochib beruvchi muayyan qarashlar tizimi. Ushbu maqolada tadbirkorlik nazariyasi (modeli) o'ziga xos qarashlar tizimi sifatida ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik nazariyasi (modeli) deganda u yoki bu guruh shaxslarining mohiyati, xulq-atvori va evolyutsiyasiga oid qarashlarning yaxlit tizimi tushunilsa, ikkinchi tomondan, vaqtinchalik, tarmoq xususiyatlariga, hajmiga, ma'lum bir tashkiliy-huquqiy shaklga mansubligi, ma'lum bir mulkchilik tuzilmasining mavjudligi va boshqalarga ko'ra shakllanib borishi nazarda tutiladi. Har bir aniq tadbirkorlik faoliyati turli guruhlariga tegishli bo'lganligi sababli, hatto bitta korxonaning turli nazariyalari haqida gapirish mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasida tadbirkorlik faoliyatining bir qator asosiy nazariyalari ajralib turadi. Ularning har birida korxonalar ma'lum nuqtai nazardan, o'rganilayotgan obyektning muayyan xususiyatlariga urg'u berilgan holda yoki mamlakatning iqtisodiy holatini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Tadbirkorlikning qancha nazariyalari va modellari borligini aytish mumkin emas, chunki har bir muallif o'z fikrlarini keltiradi.



MAVZUNING METODOLOGIYASI

Ma'lumki, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining juda katta qismini tashkil qilayotgan yoshlarning ish bilan faol bandligini ta'minlash, bu borada ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, yoshlarning biznes g'oyalarini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligi, uni qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish va faol bandligini ta'minlash bo'yicha yangi mexanizm joriy etish vazifasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tadbirkorlik faoliyati asosiy tushunchalari hamda milliy qadriyatlarining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib ijtimoiy rivojlanishning xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyati va uni tartibga solishning muhim jihatlari o'rganilgan.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Klassik iqtisodiy nazariyaga ko'ra, bu nazariyada korxonalar va tadbirkorning o'rni unchalik katta emas edi, chunki u faqat ishlab chiqarish funksiyasiga tushirilgan edi. Yaratilgan mahsulotni (tovar va xizmatlarni) realizatsiya qilish jarayoni J.B.Seyning asosiy iqtisodiy qonuniga muvofiq amalga oshiriladi, unga ko'ra "yalpi talab yalpi taklifga tengdir" ^[1]. A.Smitning fikricha, tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishiga qanchalik erkinlik berilsa, iqtisodiy rivojlanish shunchalik jadallashadi ^[2]. Smit iqtisodiy faoliyatga to'siq bo'luvchi asosiy kuch bu – davlat, deb hisoblaydi. Smitning liberal qarashlari Yevropada, xususan, Angliyada keng ommalashgan va o'sha davr hukumatlari tomonidan liberal qonunlar va qarorlar qabul qilinishiga ilmiy asos bo'lgan.

Neoklassik tadbirkorlikni xomashyo resurslarini mahsulotga aylantiruvchi va bu resurslardan ishlab chiqarishda foydalanadigan yaxlit obyekt sifatida qaraydi. Ushbu tadbirkorlik modelining asosiy g'oyasi ishlab chiqarish funksiyasi bo'lib, u ishlab chiqarish natijalarining sarflangan resurslarga bog'liqligiga asoslanadi. Tadbirkorlikning xatti-harakati foydalaniladigan resurslarning hajmi va tuzilishini, shuning uchun foydalaniladigan mahsulotlarni tanlash bilan belgilanadi. Tadbirkorlikning neoklassik tushunchasi – bu resurslarni jamiyat uchun zarur bo'lgan tayyor mahsulotga aylantirish va ularni bozorda erkin sotishdan iborat bo'lib, bu hozirgi vaqtda iqtisodiyot fanida umume'tirof etilgan tushunchadir.

Tadbirkorlikka oid neoklassik namoyondalarining o'z nazariyalari mavjud. Ushbu nazariyalar umumlashtirilgan mukammal ratsionallik va tadbirkorlik funksiyasining o'ziga xosligi va zarurligini tushuntirish uchun to'liq ma'lumotlarga xarajatsiz kirish haqidagi taxminlarni qisman rad etadi. Ular mukammal ratsionallikni ayrim shaxslar bilan chegaralanishini va bozorda qimmatga tushishi mumkin bo'lgan foyda imkoniyatlari haqida to'liq ma'lumotni taxmin qiladilar. Shu tarzda, tadbirkorlik funksiyasi mahsulot innovatsiyasini, noaniqlikni, ishlab chiqarish funksiyalariga to'liqlik berishni foyda olish imkoniyatlarini tashkil qilishni jamoaviy ishlab chiqarish, bozorni yaratish, yetakchilik yoki ularning kombinatsiyasini o'z ichiga olishini ta'kidlashadi ^[3].

Neoklassik yondashuvlar tadbirkorlikning o'ziga xosligini aholi o'rtasida umumlashgan xususiyat o'rniga mukammal ratsionallikni tanlab olish, to'liq ma'lumotlarning erkin foydalanish o'rniga qimmatga tushishi bilan tushuntiradi. Ammo agar ma'lumot to'liq va ratsionallik mukammal bo'lib qolsa, foyda olish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, xabardorligi va ulardan foydalanish ekzogen tarzda berilganligi sababli tushuntirilmaydi. Neoklassik nazariya qoidalari va tadbirkorlik faoliyatining amaldagi nomuvofiqligi muammoni hal qilishda yangi yondashuvlarni izlash zaruratini keltirib chiqardi.

I. Ansoffning strategik rejalashtirish konsepsiyasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyati boshqaruv obyekti, strategik rejalashtirish esa uning funksiyalaridan biri sifatida qaralgan.

O'zining korxonalar modelida u quyidagi asosiy fikrlarni aniqladi:

- 1) prinsipial jihatdan yangi vazifalarning paydo bo'lishi tufayli boshqaruv tajribasining qadrsizlanishi;
- 2) bozorlarning geografik chegaralarining kengayishi munosabati bilan vazifalar sonining ko'payishi bilan bog'liq boshqaruv muammolarining murakkablashishi;
- 3) bir tomondan, vazifalarning murakkabligi va yangiligi, ikkinchi tomondan, o'tmishda olingan mavjud boshqaruv ko'nikmalari o'rtasidagi tafvutning paydo bo'lishi va ortishi;
- 4) yangi vazifalar chastotasining ortishi bilan bog'liq bo'lgan strategik kutilmagan hodisalar ehtimolining oshishi.

Ushbu konsepsiyaga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati resurslardan foydalanishning optimal kombinatsiyasini izlamaydilar, lekin cheklangan miqdordagi variantlarni taqqoslashlariga qaramay, eng samarali variantni tanlaydilar (umuman olganda optimal bo'lmasligi mumkin).

Tadbirkorlik faoliyatining institutsional nazariyasi. Institutsional nazariyaga ko'ra, korxonalar odamlar tomonidan o'z imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanish uchun yaratilgan tadbirkorlik subyekti sifatida qaraladi.



Kerakli materiallar va asbob-uskunalarni sotib olish bilan bog'liq holda, korxonalar tashkil etilgan taqdirda muomala xarajatlari korxonalar tashkil etmasdan bir xil mahsulotni ishlab chiqarishga qaraganda kamroq bo'ladi, bu korxonalar mavjudligini tushuntiradi.

Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining institutsional versiyasi, neoklassikdan farqli o'laroq, ishlab chiqarish omillari xarajatlari va maksimal qiymat o'rtasidagi texnologik bog'liqlikni ifodalash shakli sifatida mavjud ishlab chiqarish funksiyasiga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektning xarajatlarning tegishli kombinatsiyasi bilan mumkin bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish xatti-harakatlarini bashorat qilishga e'tibor qaratmaydi.

Evolyutsiya nazariyasida tadbirkorlik faoliyati o'ziga xos muhitdagi subyektlardan biri sifatida qaraladi. Tadbirkorning xulq-atvori, birinchidan, jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ikkinchidan, uning ba'zi ichki xususiyatlari, xususan, muayyan ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda qaror qabul qilish qoidalarini bilan belgilanadi. Tadbirkorlikning faoliyati va uning kontragentlar bilan o'zaro munosabatlari jarayonida tegishli an'analar shakllantiriladi va qarorlar qabul qilish tartiblari, ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga javob berish algoritmlari ishlab chiqiladi.

Evolyutsion konsepsiyaga ko'ra, bu qoidalar odatda korxonalarni tavsiflaydi va raqobatda bir korxonani boshqasidan ajratib turadi [4]. "Evolyutsiyachilar" fikriga ko'ra, qabul qilinadigan qarorlarning mohiyatini har qanday sharoitda foydani maksimal darajada oshirishga bo'lgan ko'r-ko'rona istagi emas, balki belgilangan qoidalaridir. Ushbu qoidalar tadbirkorning ishbilarmonlik muhitidagi o'zgarishlarga muvofiq o'zgaradi va korxonalar menejerlarining shaxsiyatini, ularning sheriklar bilan munosabatlarining xarakterini aks ettiradi.

Evolyutsion konsepsiyaning o'ziga xos xususiyati korxonani bir tomondan, u biznes jamiyatining a'zosi bo'lib, uning evolyutsiyasi ta'sirida to'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, u o'z an'analarni boshqaradi. faoliyat yo'nalishlarini, resurslarni jalb qilish hajmlari va nisbatlarini aniqlash kabi ikki pozitsiyadan qabul qilishda namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik subyektining tadbirkorlik modeli korxonaning tadbirkorlik tashabbusi sohasi sifatidagi g'oyasiga va tadbirkor uchun mavjud resurslarga asoslanadi [5]. Albatta, hamma korxonalar ham tadbirkor emas va shu ma'noda tadbirkorlik nazariyasi boshqa turdagi korxonalar nazariyasiga qaraganda ancha cheklangan o'rganish obyekti ega. Tadbirkorlik konsepsiyasiga ko'ra, xatti-harakatlari korxonalar faoliyatiga ta'sir qiladigan tadbirkorlarning uch turi mavjud:

- makro tadbirkorlar kompaniyaning tashqi aloqalarini boshqaradi;
- mezo-tadbirkorlar korxonaning ichki faoliyatidagi moddiy va moliyaviy oqimlarni, shu jumladan innovatsion tadbirlarni boshqaradi;
- mikro tadbirkorlar – korxonaning mikro bo'g'ini darajasida, ish o'rinlarini tashkil etishgacha faoliyat yuritadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, korxonalar nazariyasining tadbirkorlik versiyasida tadbirkorlik subyektining rahbari har qanday sharoitda tadbirkor bo'lib qoladi – uning maqsadi va kasbiy hayoti mavjud ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

1912-yilda J.Shumpeterning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" kitobida keltirilgan konsepsiyasi tadbirkor"ni – "innovator" bilan, tadbirkorlikni innovatsiyalar faoliyatini tahlil qilish bilan bog'ladi [6]. Tabiiyki, bunday nuqtai nazar innovatsion faoliyat ixtirolar va yangi texnologiyalarda yetarlicha aniq namoyon bo'lgandagina shakllanishi mumkin edi.

Shumpeterning so'zlariga ko'ra, "tadbirkorlik – bu yangi kombinatsiyalarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan va uning faol elementi bo'lgan iqtisodiy subyektlardir" – deb ta'riflaydi [7]. Agar joriy qilingan kombinatsiyalar va ular yordamida amalga oshirilgan ishlab chiqarish asosida ishlab chiqarilgan tovarlarning o'zgarmagan to'plami, miqdori va iste'mol usullari bilan tavsiflangan sikl doirasida ishlay boshlasa, jismoniy shaxs tadbirkor deb hisoblanmaydi. Shuning uchun juda kam sonli shaxslarni o'nlab yillar davomida tadbirkor deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi tushunchalarning har biri korxonani ma'lum bir jihatda ko'rib chiqadi. Ba'zi tushunchalar (nazariyalar, modellar) allaqachon o'z vaqtidan o'tib ketgan. Buning o'rniga, ularning har birini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki ularning har biri o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega.

Shu sababli, iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlikning umumlashtirilgan nazariyasini yaratish to'g'risida fikrlar bildirilgan bo'lib, u tadbirkorlikning o'ziga xos tizim integratori – vaqt va makonda turli xil ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarni birlashtirgan yaxlit iqtisodiy obyekt sifatida tushunchasi bo'lishi kerak va bu orqali tizimli multiplikativ samaradan foydalanish yordamida qayta ishlaydi hamda samaradorlikka erishadi.

Tadbirkor va tadbirkorlik tushunchasini tahlil qilib, shaxsning tadbirkorlik faoliyatini boshqa faoliyat turlaridan ajratib turadigan asosiy xavfning mavjudligi, xususan, yo'qotish xavfi, rejalashtirilgan foydani olmaslik, aktivlarning yo'qolishi va boshqa xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Albatta, tadbirkor foyda olishga intiladi. Foyda nafaqat tadbirkorning mehnatini mukofotlash, balki biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarishni mod-



ernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish manbaya bo'lib, tadbirkorlik faoliyati cheklangan resurslardan foydalanish asosida amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati davlatning tovarlarga, ishlarga va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, tadbirkorlik innovatsiyalarga asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan mutaxassis olimlarning fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bizningcha, "Tadbirkorlik – jismoniy shaxs yoki jismoniy shaxslar guruhining (tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan yoki yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan) mahsulot, ishlarni, xizmatlarni o'zgartirishga bo'lgan davlat ehtiyojlarini qondirish asosida, moddiy va nomoddiy resurslarni jalb qilishni hamda kontragentlar bilan o'zaro munosabatlarni talab qiladigan ijtimoiy mas'uliyatga va tavakkalchilikka asoslangan faoliyat" – deb ta'riflash mumkin.

Ushbu berilgan ta'rif tadbirkorlik faoliyatining mustaqil shaxslar guruhi amalga oshirishi va bu esa ushbu guruh a'zolarining tadbirkorlik faoliyatida teng ishtirok etish belgilariga e'tibor qaratareb imkonini beradi. Chunki ushbu faoliyatda tadbirkor ish beruvchi sifatida xodim bilan mehnat munosabatlarida ish beruvchi buyruq beradi va xodim ularni bajaradi. Bu mehnat munosabatlarini birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati doirasidagi kishilarning o'zaro munosabatlaridan ajratib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik jihatlari tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi tarkibiy qismlardan (subyektlar, obyektlar, jara-yonlar) tashkil topgan tadbirkorlik faoliyatining alohida tarkibiy qismidir. Tadbirkorlik faoliyatining barcha jihatlari tadbirkorlikka ta'sir qiladi va o'z navbatida tadbirkorlik ham tadbirkorlik faoliyatining tomonlariga ta'sir qilishi mumkin. Tadbirkorlik va tadbirkorlikning o'zgaruvchan jihatlarning o'zaro ta'siri xavf va noaniqlikning mavjudligini nazarda tutadi.

Davlat iqtisodiy munosabatlarning kuchli ishtirokchisidir, chunki aynan u iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat banklari pul-kredit siyosatini shakllantirish, davlat korxonalari hisobidan davlat iqtisodiyotida ishtirok etish va boshqa iqtisodiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, tadbirkorlik faoliyati jihatlari doirasidagi siyosat nafaqat davlat aralashuvining natijasi, balki tadbirkorning boshqa kontragentlar bilan o'zaro munosabati, tadbirkorlar hamjamiyatining davlat bilan o'zaro hamkorligidir. Bir tomondan, tadbirkorlik davlat siyosatiga bog'liq, chunki davlat qonunchilikni tartibga solish shaklida qoidalarni shakllantiradi va davlat siyosatiga ta'sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Say, J.-B. (1803), *Traité de l'économie politique ou simple exposition de la manière dont se forment, se distribuent ou se consomment les richesses*, Calmann-Lévy ...diteur, Paris, 1972.
2. Smith, A. (1776 [1776]-a). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*, Volume 1, vol. Vol. 2/1, The Glasgow Edition of the Works and Correspondence of Adam Smith. Clarendon Press, Oxford.
3. Baumol, W.J., 2010. *The Microtheory of Innovative Entrepreneurship* (The Kauffman Foundation series on innovation and entrepreneurship). Princeton, NJ: Princeton University Press.
4. Клейнер Г.Б. От теории предприятия к теории стратегического управления / Российский журнал менеджмента. – 2003. – № 1. – С. 31-56.
5. Schumpeter, J.A. *The theory of economic development: an inquiry into profits, capital, credit, interest, and the business cycle* //New York: OUP. – 1961. – P. 53-57.
6. В.Филюк. Инновационная теория предпринимательства Й.А.Шумпетера / Актуальные проблемы развития предпринимательской деятельности в Украине Сборник научных трудов студентов, аспирантов и молодых ученых, выпуск 8 (под. ред. проф. А.В.Шегды) университет", 2008. – С. 117 – 124.
7. Й.Шумпетер. Теория экономического развития. –М.: – "Эксмо", 2007.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

